

ITALIYA VA HINDISTON MISOLIDA YEVROPA VA OSIYO IQTISODIY ALOQALARINING YANGI BOSQICHI:

Ishmuradov Bahodir Sunnatovich

JIDU, Xalqaro moliya va investitsiyalar kafedrası o'qituvchisi
ishmuradov@uwed.uz

Hojiakbarova Maftuna Rustambek qizi

JIDU, Tashqi iqtisodiy faoliyat yo'nalishi, 1-kurs magistr talabasi
maftunahojiakbarova2003@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Italiya va Hindiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning hozirgi holati, o'sish tendensiyalari hamda ikki tomonlama hamkorlikning strategik ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda Yevropa Ittifoqi doirasidagi savdo diplomatiyasi va aloqalari hamda Hindistonning iqtisodiy siyosati o'zaro uyg'unlashgan holda ko'rib chiqilgan. Statistik ma'lumotlar asosida 2019–2024 yillar oralig'ida Italiya va Hindiston o'rtasidagi eksport-import hajmining dinamikasi, savdo balansidagi o'zgarishlar hamda investitsion oqimlar tahlil etilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar barqaror o'sish bosqichida bo'lib, ularning o'zaro hamkorligi Yevropa va Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishda muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *Italiya, Hindiston, iqtisodiy hamkorlik, eksport, import, svado siyosati, Yevropa Ittifoqi, investitsiya.*

Abstract: *This article analyzes the current state of trade and economic relations between Italy and India, their growth trends, and the strategic significance of bilateral cooperation. The study examines trade diplomacy within the European Union framework and India's economic policies in a mutually coordinated manner. Based on statistical data, the dynamics of export-import volumes, changes in the trade balance, and investment flows between Italy and India from 2019 to 2024 have been analyzed. The results indicate that economic relations between the two countries are in a stable growth phase, and their mutual cooperation plays an important role in deepening economic integration between Europe and Asia.*

Keywords: *Italy, India, economic cooperation, export, import, trade policy, European Union, investment.*

Аннотация: *В данной статье анализируется текущее состояние торгово-экономических отношений между Италией и Индией, их тенденции роста, а также стратегическая значимость двустороннего сотрудничества. В исследовании рассматривается торговая дипломатия в рамках Европейского Союза и экономическая политика Индии в взаимосогласованном формате. На основе статистических данных проанализирована динамика объёмов экспорта и импорта, изменения торгового баланса и*

инвестиционных потоков между Италией и Индией за период 2019–2024 годов. Результаты показывают, что экономические отношения между двумя странами находятся на стадии устойчивого роста, а их взаимное сотрудничество играет важную роль в углублении экономической интеграции между Европой и Азией.

Ключевые слова: Италия, Индия, экономическое сотрудничество, экспорт, импорт, торговая политика, Европейский Союз, инвестиции.

KIRISH

Bugungi rivojlanayotgan zamonda dunyo mamlakatlari o'rtasida savdo-sotiq aloqalari yanada rivojlanmoqda. Shu jumladan, so'nggi yillarda Italiya va Hindiston o'rtasida savdo munosabatlari keskin darajada ortib, ikki tomonlama o'zaro manfaatga asoslangan hamkorlikning muhim yo'nalishiga aylandi. Ushbu esseda ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalarining asosiy yo'nalishlari, iqtisodiy natijalari va tahlillari ko'rsatilgan.

ASOSIY QISM

Italiya — Yevropa Ittifoqining eng muhim iqtisodiy markazlaridan biri bo'lib, ayniqsa sanoat, avtomobilsozlik, energetika va texnologiyalar sohalarida katta tajribaga ega mamlakat sifatida tanilgan. U ishlab chiqarishdagi yuqori sifat standartlari, innovatsion yondashuvlari va eksport salohiyati bilan jahon bozorida o'z o'rnini mustahkam egallagan. Italiya iqtisodiyotining asosiy kuchi kichik va o'rta bizneslar (SME) faoliyatida namoyon bo'ladi, ular xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etib, tashqi savdo diplomatiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Hindiston esa so'nggi o'n yilliklarda jadal rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sifatida jahon iqtisodiyotida muhim o'rin egallamoqda. U ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari, dori-darmon ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida katta yutuqlarga erishdi. Hindiston hukumati so'nggi yillarda "Make in India" dasturi orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksportni oshirish va texnologik modernizatsiyani qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratmoqda. Bu esa mamlakatni Yevropa davlatlari, jumladan, Italiya uchun ham jozibador iqtisodiy hamkor sifatida namoyon qiladi.

Italiya va Hindiston o'rtasidagi savdo diplomatiyasi aynan shu ikki davlatning o'zaro iqtisodiy imkoniyatlarini to'ldiruvchi omil sifatida shakllanmoqda. Italiya Hindistonga zamonaviy texnologiyalar, mashinasozlik va energiya samaradorligi bo'yicha ilg'or tajriba taklif qilsa, Hindiston Italiya uchun keng iste'mol bozori va mehnat resurslari bilan muhim sherikka aylanmoqda. Shu bilan birga, ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik muloqot siyosiy ishonch, madaniy almashinuv va barqaror iqtisodiy aloqalar orqali mustahkamlanib bormoqda. Masalan, urushdan keyin Tinchlik davrida Italiya yiliga 17 mln.funt sterlinglik bug'doy import qilgan (Buyuk Britaniya esda 42 mln.funt sterlinglik). Shuning uchun bug'doy va undan

tayyorlangan mahsulotlar Italiya uchun muhim import hisoblanadi.¹ Italiyaning asosiy ehtiyojlari: bug'doy, paxta, jun tolasi, charm, kimyoviy mahsulotlar hisoblanadi. Hindiston Italiyaga xomashyo beradi, Italiya esa Hindistonga texnika va mashina-uskunalar yetkazib beradi.

Umuman olganda, Italiya va Hindiston o'rtasidagi savdo diplomatiyasi nafaqat tovar va xizmatlar ayirboshlashni, balki uzoq muddatli strategik sheriklikni shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Bu hamkorlik Yevropa va Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yanada chuqurlashishiga, yangi investitsion imkoniyatlar yaratishga hamda ikki tomonlama iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam bermoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yevropa Komissiyasining 2023-yilgi "EU Trade and Investment Report"² ma'lumotlariga ko'ra, Italiya Hindistonning eng faol Yevropa hamkorlaridan biri bo'lib, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 15 milliard yevrodan oshgan. Shu bilan birga, Italiya tashqi ishlar vazirligi tomonidan tayyorlangan "Rapporto sull'Italia e il commercio globale"³ hisobotida³ ikki davlat o'rtasida energetika, avtomobilsozlik va farmatsevtika sohalarida hamkorlikning jadallashgani ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, Giovanni Grevi tomonidan yozilgan "The Future of EU-India Relations"⁴ monografiyasida⁴ savdo diplomatiyasining siyosiy mazmuni yoritilgan bo'lib, unda Italiya Hindistonni Yevropa bilan strategik bog'lovchi ko'priksifatida ko'radi. Shuningdek, Ramesh Chandning "India's Trade Policy and Global Integration"⁵ asarida⁵ Hindistonning savdo siyosati va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik tamoyillari tahlil qilingan.

Xorijiy olimlar tomonidan chop etilgan maqolalar ham ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik hamkorlikning chuqurlashayotganini tasdiqlaydi. Masalan, Marco Riccardi va Priya Menonning "Trade Diplomacy between Italy and India: Emerging Dynamics"⁶ maqolasida⁶ iqtisodiy aloqalarning madaniy diplomatiya orqali mustahkamlanayotgani qayd etilgan. Shu bilan birga, "Journal of International Economic Affairs"⁷da chop etilgan Anjali Kapoor maqolasida⁷ Italiya kompaniyalarining Hindistondagi investitsion loyihalari haqida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

"Italy-India Business Council"⁸ rasmiy saytida⁸ va "The Diplomat"⁹ onlayn jurnalida⁹ keltirilgan ma'lumotlar ham ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy sheriklikning o'sishini ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

¹ <https://www.india-briefing.com/news/profiling-india-italy-trade-and-commercial-relations-33906.html/>

² European Commission. (2023). "EU Trade and Investment Report 2023". Brussels.

³ Ministero degli Affari Esteri e della Cooperazione Internazionale. (2022). "Rapporto sull'Italia e il commercio globale". Roma. https://www.ice.it/it/statistiche/rapporto_2022.aspx

⁴ Grevi, G. (2021). "The Future of EU-India Relations". Bruegel Institute, Brussels.

⁵ Chand, R. (2020). "India's Trade Policy and Global Integration". Oxford University Press, New Delhi.

⁶ Riccardi, M. & Menon, P. (2022). "Trade Diplomacy between Italy and India: Emerging Dynamics". "Global Economic Review", 51(3), 211-230.

⁷ Kapoor, A. (2021). "Italian Investments in India: A Sectoral Overview". "Journal of International Economic Affairs", 47(2), 145-167.

⁸ Italy-India Business Council. (2024). "Official Report on Bilateral Trade". Retrieved from <https://www.iibc.org>.

⁹ The Diplomat. (2023). "Italy and India: Building Strategic Trade Ties". Retrieved from <https://thediplomat.com>.

Yevropa Ittifoqi (YI) Hindistonning ikkinchi yirik savdo hamkori bo'lib, 2024-yilda tovarlar savdosi hajmi 120 milliard yevroni tashkil etdi, bu Hindistonning umumiy savdosining 11,5% ni tashkil qiladi. Hindiston esa YIning 9-yirik savdo hamkori bo'lib, 2024-yilda YIning tovarlar savdosidagi ulushi 2,4% ni tashkil qiladi, bu AQSh (17,3%), Xitoy (14,6%) va Buyuk Britaniya (10,1%)dan ancha past. So'nggi o'n yil ichida YI va Hindiston o'rtasidagi tovarlar savdosi deyarli 90% ga oshdi.

YIning Hindistondan import qiladigan asosiy mahsulotlari asosan mashina va uskunalar, kimyo mahsulotlari, asosiy metallar, minerallar va matolardan iborat. YIning Hindistonga asosiy eksport qiladigan mahsulotlari esa mashina va uskunalar, transport vositalari va kimyo mahsulotlaridan tashkil topgan.

Xizmatlar savdosi 2023-yilda 59,7 milliard yevroni tashkil etdi (YI uchun 7,9 milliard yevro miqdorida salbiy balans bilan).

2023-yilda YIning Hindistondagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) hajmi 140,1 milliard yevroga yetdi, bu 2019-yildagi 82,3 milliard yevrodan oshgan, bu YIni Hindistondagi yetakchi xorijiy investorga aylantirdi. Hindistonning YIdagi FDI hajmi esa 10,2 milliard yevroni tashkil etdi, taxminan 6 000 yevropalik kompaniya Hindistonda faoliyat yuritmoqda¹⁰.




Figure 1: Intra-EU exports of goods, January 2002 - December 2024 (€ billion)
 Source: Eurostat (ext_st_eu27_2020sitc)

¹⁰ Ministero degli Affari Esteri e della Cooperazione Internazionale. (2022). "Rapporto sull'Italia e il commercio globale". Roma. https://www.ice.it/it/statistiche/rapporto_2022.aspx




Figure 2: Intra-EU trade in goods balance by Member State, 2024 (€ billion)
Source: Eurostat Comext (ds-059331)




Figure 3: Intra-EU trade in goods balance by Member State - details, 2024 (€ billion)
Source: Eurostat Comext (ds-059331)

Shunday qilib, Hindiston va Italiya o‘rtasidagi savdo aloqalarini har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud. Italiyaning qulay joylashuvi tufayli bunday rivojlanish ikki davlatning do‘stona hamkorligi va ilgari mavjud bo‘lgan Germaniya aralashuvisiz, ayniqsa Italiyadan Hindistonga bo‘lgan savdo-sotiqda yuzaga kelishidan Hindiston manfaatdor hisoblangan.


ITALY'S TOTAL EXPORTS AND IMPORTS, VOLUME OF TRADE AND BALANCE OF TRADE
BETWEEN 2019 - 2023

(Figures in USD Million)							
Year	Exports	Percentage Growth in Exports	Imports	Percentage Growth in Imports	Volume of Trade	Percentage Growth in Vol. of Trade	Balance of Trade
2019	537748		474957		1012705		62791
2020	498804	-7.24	426476	-10.21	925280	-8.63	72328
2021	615910	23.48	568202	33.23	1184112	27.97	47708
2022	659387	7.06	695236	22.36	1354623	14.40	-35849
2023	677095	2.69	639929	-7.96	1317024	-2.78	37166
Annual Growth Rate	Compound 5.93		7.74		6.79		

NOTE : Figures relate to calendar year (January to December)

SOURCE

: UN COMTRADE PUBLICATION



4-jadval. ITALIYANING 2019–2023 YILLAR ORASIDAGI UMUMIY EKSPORTI VA IMPORTI, SAVDO HAJMI HAMDA TASHQI SAVDO BALANSI


Ushbu jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, Eksport hajmi 2019-yildagi 537 748 mln USD dan 2023-yilda 677 905 mln USD ga oshgan. O'rtacha yillik o'sish sur'ati 5.93% bo'lgan. Import hajmi esa 2019-yildagi 474 957 mln USD dan 2023-yilda 639 929 mln USD ga oshgan. O'rtacha yillik o'sish sur'ati 7.74% bo'lgan. Natijada, savdo hajmi (eksport + import) 2019-yildagi 1 012 705 mln USD dan 2023-yilda 1 317 024 mln USD gacha oshgan. O'rtacha yillik o'sish 6.79%. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 2019–2023 yillarda Italiya tashqi savdosi barqaror o'sishga ega bo'lgan. 2022-yilda energetika inqirozi sabab savdo defitsiti yuzaga kelgan. 2023-yilda importning pasayishi va eksportning biroz o'sishi natijasida Italiya yana pozitiv savdo balansiga erishgan.

INDIA'S MERCHANDISE EXPORTS & IMPORTS w.r.t. ITALY
FY 2019-2020 to 2023-2024

(Value in USD Million)							
Year	Exports from India to Italy	Percentage Growth in Exports	Imports from Italy to India	Percentage Growth in Imports	Volume of Trade	Percentage Growth in Vol. of Trade	Balance of Trade
2019-20	4971.42		4490.92		9462.34		480.50
2020-21	4736.16	-4.73	3862.05	-14.00	8598.21	-9.13	874.11
2021-22	8181.15	72.74	5048.47	30.72	13229.62	53.86	3132.68
2022-23	8691.83	6.24	5591.91	10.76	14283.74	7.97	3099.92
2023-24	8766.71	0.86	5795.37	3.64	14562.08	1.95	2971.34
Annual Growth Rate	Compound 15.24		6.58		11.38		

NOTE : Figures relate to Financial Year (April to March)

SOURCE : DGCI&S, M/o C&I



11 <http://www.itj.dgciskol.gov.in/8go5qduSxITDBoMgX6ul2ly9QkLA0cHWPTvwHzgI.pdf>

5-jadval. HINDISTONNING ITALIYAGA TOVAR EKSPORTI VA IMPORTI¹²

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Hindistondan Italiyaga eksport 2019–2020-yilda 4971,42 mln USD, 2023–2024-yilda 8766,71 mln USD bo'lgan. O'rtacha yillik o'sish sur'ati 15.24% ni ko'rsatadi. Bundan ko'rinib turibdiki, Hindistonning Italiyaga eksport salohiyati yildan-yilga ortgan.

Italiyadan Hindistonga import esa 2019–2020-yilda 4490,92 mln USD, 2023–2024 yilda 5795,37 mln USD. O'rtacha yillik o'sish 6.58%.

Tahlillardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, Eksport o'sish sur'ati importnikidan ikki baravar yuqori. Umumiy savdo hajmi (Eksport + Import) esa 2019–2020-yilda 9462,34 mln USD, 2023–24-yilda 14 562,08 mln USD. O'rtacha yillik o'sish 11.38%. Bu natijalar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada kengayganini bildiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Italiya va Hindiston o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar ikki tomon uchun ham strategik ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va madaniy sohalarda ham o'zaro ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ikkala davlatning qulay geografik joylashuvi va davlatlarning tez rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti savdo imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada, ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy bog'liqlik mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA HAVOLALAR RO'YXATI:

1. <https://www.india-briefing.com/news/profiling-india-italy-trade-and-commercial-relations-33906.html/>
2. European Commission. (2023). "EU Trade and Investment Report 2023". Brussels.
3. Ministero degli Affari Esteri e della Cooperazione Internazionale. (2022). "Rapporto sull'Italia e il commercio globale". Roma.
4. Grevi, G. (2021). "The Future of EU-India Relations". Bruegel Institute, Brussels.
5. Chand, R. (2020). "India's Trade Policy and Global Integration". Oxford University Press, New Delhi.
6. Riccardi, M. & Menon, P. (2022). "Trade Diplomacy between Italy and India: Emerging Dynamics". "Global Economic Review", 51(3), 211–230.
7. Kapoor, A. (2021). "Italian Investments in India: A Sectoral Overview". "Journal of International Economic Affairs", 47(2), 145–167.
8. Italy-India Business Council. (2024). "Official Report on Bilateral Trade". Retrieved from <https://www.iibc.org>.

¹² <http://www.it.dgciskol.gov.in/8go5qduSxITDBoMgX6ul2ly9QkLA0cHWPTvwHzgI.pdf>

9. The Diplomat. (2023). "Italy and India: Building Strategic Trade Ties". Retrieved from <https://thediplomat.com>.
10. Ministero degli Affari Esteri e della Cooperazione Internazionale. (2022). "Rapporto sull'Italia e il commercio globale". Roma. https://www.ice.it/it/statistiche/rapporto_2022.aspx
11. <http://www.itj.dgciskol.gov.in/8go5qduSxITDBoMgX6uI2ly9QkLA0cHWP TvWHzgI.pdf>
12. <http://www.itj.dgciskol.gov.in/8go5qduSxITDBoMgX6uI2ly9QkLA0cHWP TvWHzgI.pdf>